







Nogironligi bor insonlarning chet elda ishlashi


Illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada sen • chet elda ishlashing mumkin yoki mumkin emasligi • sen uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida bilib olasan.
	Vazirlar Mahkamasining 725-sonli qarori bilan qabul qilingan Nizomga ko‘ra, O‘zbekiston fuqarolarining chet elda ishlashlari nazorat qilinadi.
	**O‘zbekiston fuqarolari** – bular O‘zbekistonda qonuniy yashaydigan insonlar.
	Sen O‘zbekiston fuqarosisan. Demak sen ham chet elga ishlash uchun chiqishing mumkin.



	Nizomga ko‘ra O‘zbekiston fuqarolari chet elga guruh bo‘lib ishlash uchun chiqishlari mumkin.
	Bu qoidalar faqat O‘zbekistonda qonuniy yashaydigan insonlar uchun **amal qiladi.**
	Chet elliklar va O‘zbekistonda qonuniy yashamaydigan insonlar uchun bu qoidalar **amal qilmaydi.**
	Seni chet davlatga ketishing mumkin bo‘lmagan holatlar: ● boshqalarga zarar yetkazadigan kasalliklar bo‘lsa ● kasallik sabab vaqtincha ishlashing mumkin bo‘lmasa, ● kasallikdan sen tuzalmaguningcha

	Boshqalarga zarar yetkazadigan kasalliklar – bu qizamiq kabi yuqumli kasalliklar.
	Biror kasallik sabab vaqtincha ishlash mumkin bo‘lmaydigan holatlar bu: ● biror tana a’zosining ishlamay qolishi ● qo‘l yoki oyoqning sinishi
	Agar senda shunday kasalliklar bo‘lsa, sen tuzalganingdan keyin chet elga ketishing mumkin.
	Seni ishlash uchun chet elga yuboradigan agentlik o‘sha davlatdagi ish beruvchi bilan shartnoma tuzgan bo‘lishi kerak.
	Chet el va agentlik o‘rtasida tuzilgan shartnomani internet manzildan o‘qiy olishing kerak.

	Chet elga ketishda **aldanib qolmaslik uchun** sen murojaat qilgan agentlikning qonuniy yoki noqonuniy ishlashini bilishing kerak.
	Qonuniy ishlaydigan agentlikning qonuniy ishlashi haqida **hujjati bo‘ladi.**
	Seni chet elga ishga yuboradigan inson sening **ma’lumotlaringni yig‘ishi shart.**
	Seni chet elga ishga yuboradigan inson sening: ● Familiyang, isming, otangning ismi ● Pasport ma’lumotlaring ● Tug‘ilgan sanang va yiling ● Yashash joying, telefon raqamlaring ● Ma’lumoting, mutaxassisligin ● Ish tajribang, boshqa ko‘nikmalaring ● Fotosuratlaringni olishi kerak.

	Sening ma'lumotlaring agentlik rahbari va chet ellik rahbarlar seni ishga tanlab olishida kerak bo'ladi.
	Agentliklar seni chet elga yuborishi uchun sen to'laydigan pul bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravaridan oshmasligi kerak.
	Hozirda 1 bazaviy hisoblash miqdori 340 000 (uch yuz qirq ming) so'm.
	Seni chet elga ishga yuborishdan oldin davlat va nodavlat o'qishlarida **kasb-hunarga o'qitishadi.**
	Agar sen chet ellik rahbar qo'ygan talablarga mos kelsang, ketishingdan oldin **o'qishing shart emas.**

	Agentlik chet davlatning holatidan kelib chiqib: ● Chet ellik rahbar sen bilan tuzadigan mehnat shartnomasi shartlarini kelishishi kerak.
	Seni yashash joyi, ishlash sharoiti bilan tanishtirishi va sening roziligingni olishi kerak.
	Seni shifokor tekshiruvida o‘tkazishi: ● sil ● ruhiy ● tanosil kasalliklari bor yoki yo‘qligi ● giyohvand moddalar iste’mol qilish yoki qilmasligingni tekshirishi kerak.
	Zarurat bo‘lsa: ● chet elga chiqish vizasini olishing uchun tegishli hujjatlarni tayyorlash ● rasmiylashtirishda senga yordam berishi kerak.
	Viza – bu sen chet elga chiqishing uchun ruxsat berilganligini tasdiqlovchi hujjat.

	Sen ishga ketayotgan mamlakatning: ● davlat tilini ● urf-odatlarini ● qonun-hujjatlarini senga o‘rgatishi kerak.
	Sen uchun: ● qo‘shimcha xavfsizlikka rioya qilish ● diniy ekstremizm ● terrorizmning oldini olish ● tanosil kasalliklari ● OIV-infeksiyasi tarqalishining oldini olish bo‘yicha qisqa kurslar o‘tkazishi kerak.
	Sening hayoting va sog‘liging sug‘urta qilinishi shart.
	Sen ishga ketayotgan davlatdagi ishchilarni tekshirib, himoya qiladigan tashkilotlar: ● O‘zbekiston Konsullik muassasalarining mehnat masalalari bo‘yicha attashesi ● Agentlikning xorijiy vakolatxonalari ● Agentlikning davlat va nodavlat xorijiy hamkorlari ● Yuboruvchi tashkilotlar ● Nodavlat notijorat tashkilotlari.